



INSON KAPITALINING INTELLEKTUAL SALOHİYATI VA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Ruzmetova Gulira'no Atabekovna
Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss1/a20

Annotatsiya. O'zbekistonda qonun ustuvorligi va inson kapitalini rivojlantirish, adolatli va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash yo'nalishlarida islohotlarni amalga oshirmoqdalar. Mazkur maqolada inson kapitali – intellektual qobiliyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligi va uni me'yoriy-huquqiy asoslarini mustaxkamlash zarurligi bayon qilingan bo'lib, Respublikamizda inson intellektual salohiyatini oshirish borasida qilinayotgan samarali investitsiyalar bilan bir qatorda ularni musatahmamlash uchun zaruriy me'yoriy hujjatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, qonunlar, farmoyishlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, intellektual, intellektual kapital.

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Рузметова Гулирано Атабековна
независимый исследователь
Ургенчского государственного университета

Аннотация. В Узбекистане реализуются реформы по развитию верховенства закона и человеческого капитала, построению справедливого и сильного гражданского общества, дальнейшему улучшению условий жизни населения. В данной статье развитие человеческого капитала - интеллектуальных способностей - является одной из актуальных проблем современности и необходимости укрепления его нормативной базы. анализируются необходимые нормативные документы для их унификации.

Ключевые слова: человеческий капитал, законы, указы, Президент Республики Узбекистан, интеллектуальный, интеллектуальный капитал.

INTELLECTUAL POTENTIAL OF HUMAN CAPITAL AND LEGAL BASIS OF DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL SYSTEM

Ruzmetova Gulirano Atabekovna
Independent researcher of the
Urgench state university

Annotation. Reforms are being implemented in Uzbekistan to develop the rule of law and human capital, to build a fair and strong civil society, and to further improve the living conditions of the population. In this article, the development of human capital - intellectual ability is one of the urgent issues of today and the need to strengthen its regulatory and legal foundations, necessary regulatory documents for their unification are analyzed.

Key words: human capital, laws, orders, the President of the Republic of Uzbekistan, intellectual, intellectual capital.

Kirish. Ta'lim tizimi – milliy iqtisodiyotning muhim elementidir. Bu holat uning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi qonuniyatlarini o'rganishni shart qilib qo'yadi. Ta'lim tizimining mohiyati uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, aynan ta'lim tizimida bilimlar ta'lim shaklida ayirboshlanadi. Bozorning ushbu turi inson kapitalining malakasini yoki sifatini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi va uning samaradorligini ta'minlaydi. Shu boisdan ta'lim tizimining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni ahamiyatlidir.

Mahalliy amaliyotda qo'llaniladigan tashqi iqtisodiy tajriba shuni ko'rsatadiki, tashkilotning raqobatbardoshligi tobora ko'proq uning moliyaviy, xomashyo va moddiy resurslaridan foydalanish savodxonligiga bog'liq bo'lib bormoqda. Shu sababli korxonalarining yetuk kadrlarga talabining oshishi nafaqat iqtisodiy o'sishning, balki bozorda omon qolishning asosiy sharti sifatida qaralmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatidan yangi holatga o'tkazish, raqobatbardoshlik, mosla-

shuvchanlikni va keyinchalik iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun katta miqdorda investitsiyalar talab etiladi[12]

Asta-sekinlik bilan mamlakatda innovatsion iqtisodiyotning taraqqiy etishi, aholi daromadlarining oshishi va ta'lim tizimi inson hayotidagi o'rnining oshib borishi mamlakatda ham asta-sekinlik bilan davr talablariga javob bera oladigan davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda xususiy ta'lim muassasalari ham tashkil topib bormoqda.

Bu holat mamlakatimizda ta'lim sohasida inson kapitalidan yildan-yilga keng foydalanayotganini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan inson kapitali tiklanishining kelib chiqishi va uning ta'lim rivojiga hissasiga e'tibor qaratish zarur. Dastlab, inson kapitali deganda faqat insonga, uning mehnat qobiliyatini, ta'lim va kasbiy mahoratini oshiruvchi investitsiyalar majmuyi tushunilgan.

Yaqin kelajakda inson kapitali tushunchasi sezilarli darajada kengaydi. Ta'lim kapitali – shaxsning umumiy ta'lim va kasbiy malaka xususiyatlari kombinatsiyasi. Ushbu kombinatsiya umumiy va kasbiy bilimlar, ta'lim muassasalarida va ishda olingan ko'nikmalar, shuningdek, kishilarning ishbilarmonlik kasbiy fazilatlarini va qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida har bir sohani rivojlantirish singari qonun bilan mustahkamlanishi, tartibga solinishi zarur. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasida aholining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar mezonini belgilangan bosh qomusi mavjud. Shuningdek, respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi – "Ta'lim qo'g'risida"gi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi qabul qilindi[2]. Dasturni amalga oshirish jarayonida ta'limning barcha bosqichlari bo'yicha o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqilib, zamonaviy xalqaro talablarga moslashtirildi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ta'lim O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy rivojlantirish sohasidagi ustuvor yo'nalish, mamlakatimiz inson kapitalini rivojlantirishda milliy boylikning bosh omili sifatida e'lon qilingan. Ta'lim olish huquqi quyidagilar bilan ta'minlanadi: davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish; ishdan uzilishlarsiz va uzluksiz o'qitishni tashkil etish; davlat ta'lim va kadrlar tayyorlash dasturlari bo'yicha bepul ta'lim olish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lanadigan kasb-hunar ta'limi. Barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi ta'lim muassasalariga kirishda

teng huquqqa egalar. Ta'lim quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim va oliy ta'lim. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim turiga: kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim kiradi. Mazkur uzluksiz ta'lim tizimini mustahkam tashkil qilish uchun uning mustahkam huquqiy asosi yaratilishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda inson kapitalining rivojlanishi uchun turli xil tadqiqot ishlari olib borilyapti. Inson kapitali va uning rivojlanishi, rivojlantirilishi uchun investitsiyalar kiritish, uning huquqiy asoslari borasida bir qator olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Bu borada ilk tadqiqotlar olib borgan amerikalik olim 1979-yilning Nobel mukofoti sovrindori Teodor Shulstning fikriga ko'ra kapitalni an'anaviy yaxlit ma'noda ikki qismga bo'lish kerak: jismoniy kapital va inson kapitali[8]. T.Shulstning inson kapitali nazariyasi bir necha natijalarga tayanadiki, ularning eng muhim jihatlari quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin (1-rasm):


Gerri Bekker T.Shulstning insonga sarmoya kiritish orqali shakllanadigan inson kapitali tushunchasiga ta'limdan tashqari yana ikkita boshqa jihatni kiritib, uni aniqlashtirgan va kengaytirgan:

- ish joyida o'qitish;
- narxlar va daromadlar haqida ma'lumot izlash[9].

Ushbu maqsadlarga yo'naltirilgan sarmoyalar insonning ishlab chiqarish quvvati, intellektual va madaniy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilishiga e'tibor qaratdi. Shuningdek uning fikricha inson kapitaliga investitsiyalar pul birliklarida o'lchanadi va ta'lim, sog'liqni saqlash hamda boshqalarga yo'naltirilgan investitsiyalar miqdori bilan belgilanadi[10]. Bundan tashqari u birinchi marta inson kapitali yoki bilim namoyon bo'lishining uchta asosiy turini ajratib ko'rsatdi va mazmunini ochib berdi[11].

1. Umumiy inson kapitali
2. Maxsus inson kapitali
3. Boshqa inson kapitali

G'arb mamlakati olimlarining bu boradagi uzoq yillik tadqiqotlari boshqa mamlakat olimlarida ham qiziqish uyg'otdi va o'rganishni boshlashdi. Rossiyalik olimlar L.S.Tarasevich va A.I.Dobriyninlar inson kapitali kategoriyasini shakllantirish qonuniyatlarini va mohiyatini quyidagicha ta'riflashadi:



1 - rasm. Teador Shultsning inson kapitali nazariyasi[9]

“Inson kapitali – investitsiyalar natijasida shakllanadigan va shaxs tomonidan to'plangan, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning muayyan sohasida maqsadga muvofiq foydalaniladigan, mehnatning unumdorligi o'sishiga hissa qo'shadigan bilimlar, sog'lik, madaniyat, ko'nikmalar, qobiliyat va motivatsiyalar zaxirasi ishlab chiqarish samaradorligi va shu bilan bu shaxsning daromadlari oshishiga olib keladi”[12].

Mazkur maqolada inson kapitali – intellektual qobiliyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligi va uni me'yoriy-huquqiy asoslarini mustaxkamlash zarurligi bayon qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta'lim to'g'risidagi qonun” va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha qaror va farmoyishlari, ma'ruzalaridan keng foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX-bobida aholining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar mezonini belgilangan bo'lib, 41-53-moddalarni o'z ichiga oladi. Bular albatta inson kapitalining davlat tomonidan qanchalar zaruriy resurs ekanligining isbotidir[1]. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi[2] O'RQ-637-sonli qonuni qabul qilinishi bilan asoslashimiz mumkin.

Shuningdek, mazkur qonun 11 bob, 75 moddadan iborat bo'lib, unda asosan ta'lim sohasiga oid asosiy tushunchalar, ta'lim printsiplari, ta'lim tizimi, turlari va shakllarining mazmuni, ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish tartibi, ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalarining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, ta'lim tash-

kilotlarini attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish, xorijiy davlatda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish, ta'lim sohasidagi hujjatlarga apostil qo'yish, ta'limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tartibi, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik aloqalari, ta'lim to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalariga izoh berilgan. Mazkur qonunning 9-bobi aynan ta'limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan bo'lib, unga muvofiq Davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobiga amalga oshiriladi:

– O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan;

– tumanlar va shaharlar byudjetlaridan;

– kadrlar buyurtmachilarining mablag'lari hisobidan;

– byudjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Shuningdek mahalliy iqtisodchi olim N.Ro'zibayevaning inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar kiritish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. N.Ro'ziboyeva o'z tadqiqotlarida: “Innovatsion rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish inson manfaatlariga yanada to'liq moslashtirilishi kerak. Ushbu manfaatlar to'lashda ham, mehnat motivatsiyasini rag'batlantirishda ham aks ettirilishi kerak. Bu bosqichda inson kapitalining sifat darajasi zamonaviy jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotining rivojlanish dinamikasini belgilaydi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda inson kapitaliga qo'yilgan sarmoyalar tabiiy va sanoat kapitaliga nisbatan ancha tez o'sib bormoqda”[13]

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tadqiqot jarayonida inson kapitalining rivoji uchun zaruriy normativ-huquqiy hujjatlarning qiyosiy tahlili va intellektual kapitalning rivojlanishida olib borilayotgan tadqiqotlarni o'rganish, ma'lumotlarni to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. So'ngi yillarda O'zbekistonda qonun ustuvorligi va inson kapitalini rivojlantirish, adolatli va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash yo'nalishlari keng ko'lamda islohotlarni amalga oshirilmogda. "Yangi O'zbekiston strategiyasining maqsadi – yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to'liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta'minlashdir. Buning uchun aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya tizimi samarasi, bandlik va daromadlar barqaror o'sishiga erishish, jamiyatning umumiy madaniyati, bag'rikenglik va mehribonlik fazilatlarini yanada oshirish bo'yicha olib borayotgan ezgu va savobli ishlarimizni yanada kuchaytirishni o'zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz"[3]. Shu boisdan yangi O'zbekistonni inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlar qatoridan o'rin egallashini ta'minlashda inson kapitalini rivojlantirishning milliy modelini yaratish, inson kapitalining barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, inson kapitalining rivojlanishini ta'minlash va uni boshqarish, tartibga solish uchun avvalo qonun ustuvorligi talab qilinadi, bunda bir qancha me'yoriy-huquqiy asoslar zarur. Bularning eng asosiylari sifatida, shubhasiz, qonunlar asosi bo'lmish Konstitutsiya amalga tadbiq qilingan barcha qonunlarning, farmon-u qarorlarning va kodekslarning otasi hisoblanadi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan qomusimizning mazkur yangi tahrirdagi IX-bobida aholining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar mezoni belgilangan. Shu bobning 42-moddasida insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori belgilanib, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarning ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va

ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi haqida belgilab qo'yilgan. Dunyoda global muammo bo'lmish kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rish, davlat fuqarolarining kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi hamda rag'batlantirilishini ta'minlash mazkur bobning 43-moddasida belgilangan. Insonning sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi, har bir O'zbekiston Respublikasi fuqarosining tibbiy yordamning hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan ta'minlanishga haqliligi belgilanib, undan tashqari davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish belgilangan Konstitutsiyaning 48-moddasi[1].

Ta'lim darajasi va sifati davlat uchun ham, fuqarolar uchun ham zarur. U inson kapitalining sifat ko'rsatkichi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil. Qomusimizning 50-moddasidan 53-moddasigacha [1] davlatning har bir fuqarosini sifatli ta'lim bilan qamrash, aholining bepul ta'lim olishi, ta'lim uzluksizligi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini rivojlanishini ta'minlash, shuningdek maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishi, oliy ta'lim bilan fuqarolarni ta'minlash kafolatlanishi belgilab qo'yilgan. Bu esa hech mubolag'asiz inson kapitalining intellektual rivoji uchun muhim asos bo'ladi.

Hozirgi ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida yurtimiz ko'p pozitsiyalar bo'yicha rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishdi. Biroq yoshlarni kasbga tayyorlash bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ham inson kapitalini rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlashni sifat jihatidan yaxshilash masalasini hal etish mamlakatimizni ijtimoi-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Albatta bu ta'lim turlarini har birining faoliyatini tartibga solish uchun zarur bo'lgan me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, hozir ma'lum ma'noda dunyo bo'yicha ta'lim sifati pasayib bormoqda. Bu taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan mamlaklarda umumjahon muammosiga aylanmoqda. Mavjud kamchiliklar kasbiy ta'lim, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mamlakat taraqqiyotida oliy ta'lim muassasalari yetakchi o'rinda turadi. Chunki mamlakat uchun asosiy mutaxassis kadrlarni aynan oliy ta'lim muassasalari yetkazib beradi. "Oliy ta'lim muassasalari xarajatlarining asosiy qismini o'z mablag'lari (asosiy qismi to'lov shartnomasi asosida

o'qiydigan talabalarning kontrakt mablag'lari hisobiga shakllanadi) hisobiga moliyalashtirilsa-da, oliy ta'lim muassasalari budjet tashkiloti hisoblanganligi bois, bu mablag'lardan to'g'ri va samarali foydalanish maqsadida uning huquqiy bazasini ta'minlashi zarur." [13] Yangi sharoitlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqazo etadi [4].

Bugungi kunda har qanday davlatning dunyo bozorida raqobatga chidamliligi nafaqat tabiiy resurslar mavjudligiga, balki eng avvalo, zamonaviy muntazam yangilanuvchi texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirishga qodir bo'lgan sifatli, kreativ inson kapitaliga bog'liq bo'lmoqda. Davlatning ilm-fanga asoslangan holda ishlab chiqarishini tashkil qilish uchun intellektual salohiyatli inson kapitali zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmon davlatning innovatsion rivojlanish yo'li va innovatsion iqtisodiyotga o'tishini nazarda tutadi va bu boradagi ustuvor vazifalarni belgilaydi. Yurtimizning jahon sahnasidagi raqobatbardoshlik darajasini

yuksaltirib, innovatsion jihatdan taraqqiy etishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish ushbu strategiyaning bosh maqsadi sifatida ko'rsatilgan [5].

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 4-yo'nalishi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangani ham bejizga emas [6]. Mazkur strategiyaga ko'ra har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish; kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish maqsad qilib qo'yildi. Inson kapitali intellektual kapitalning ajralmas qismi bo'lib, xodimlarning bilim, malakava qobiliyatlari to'plamidir, darhaqiqat mamlakat doirasida inson kapitali har bir fuqaroning intellektual qat'iyli, intellektual tadbirkorligi, intellektual ziyrakligida namoyon bo'ladi. Inson kapitalini rivojlantirmay turib, innovatsion taraqqiyotga erishish mumkinmas. Davlat iqtisodiy jihatdan taraqqiyotga erishishi uchun este'dodlar tarbiyalanishi zarur. Hozirda mamlakatimiz aholisi soni o'sish tendensiyasiga ega. 2023-yil iyun oyiga kelib aholi soni 36,4 mln kishini tashkil qiladi [14]. Taniqli iqtisodchi olimlar inson kapitaliga investitsiya kiritishga nisbatan beparvolik mamlakat raqobatbardoshligini keskin pasayishiga sabab bo'lishini ta'kidlashadi. 2018-yilda ijtimoiy sohaga ajralgan xarajatlarning jami budjet xarajatlaridan ulushi 53,8%ni tashkil qilgan bo'lsa, ko'rsatkich 2022-yilda 49,0%ni tashkil qilgan. 2024-yilga kelib esa ijtimoiy xarajatlarga 151 504 mlrd so'm yo'naltirilishi belgilangan, bu o'z navbatida jami Davlat budjeti xarajatlarining 48,4%ini tashkil etadi. Avvalgi yillar kabi ijtimoiy xarajatlarning aksariyat qismi ta'lim tizimi uchun xarajatlar (46%) tashkil etishi kutilmoqda (1-jadval).

1 – jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida ta'lim xarajatlari salmog'i (mlrd.so'm)

No	Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1	Davlat budjetining jami xarajatlari	79736	118009	144142,7	165879	214799,6	257734	312921
2	Ijtimoiy xarajatlar	42883	63542	74 231,8	86622	105199,5	129891	151 504
3	Ta'lim xarajatlari	20632	33536	29961,1	34590	46713,8	58372	69076,20

Xususan, umumta'lim muassasalarini moliyalashtirish ta'lim tizimiga ajratilgan xarajatlarning tarkibida eng katta ulushni tashkil etsa, keyingi o'rinlarda mos ravishda maktabgacha ta'lim va

oliy ta'limga ajratiladigan xarajatlar turadi.(2-rasm). Ushbu diagrammadan shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, har yil kelgusi yilgiga nisbatan o'sish tendensiyasida.

Ta'lim qay darajada rivojlangan bo'lsa, milliy iqtisodiyotga shunga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar faoliyat olib boradi va shunga mos iqtisodiy o'sishga erishiladi. Ta'lim

sohasi intellektual inson kapitali rivojlantirib, iqtisodiy faravonlikka erishishning imkoniyati bo'lib hisoblanadi.


2-jadval

Me'yyoriy-huquqiy hujjatlar

	Yillar	Nomi
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni(29.11.2017)	O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori(5.07.2018)	Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori(14.08.2018)	Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida
4	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1030-sonli qarori(24.12.2019)	Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5847-son (8.10.2019)	O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida
6	O'zbekiston Respublikasining Qonuni O'RQ-576-son (29.10.2019)	Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida
7	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining Qarori 1030-son (24.12.2019)	Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-4653-son (27.03.2020)	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida
9	O'zbekiston Respublikasining Qonuni (23.09.2020)	Ta'lim to'g'risida
10	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari PQ-60-61-son (24.12.2021)	Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida
11	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-60-son (29.01.2022)	2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida
12	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-87-son (7.03.2022)	Oila va xotin qizlarni tizimli qo'llab quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
13	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-279-son (16.06.2022)	Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida
14	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining Qarori 419-son (1.08.2022)	Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida
15	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining Qarori 181-son (2.05.2023)	Davlat oliy ta'lim muassasalari, respublikadagi xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini moddiy hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

“Dunyo mamlakatlarida davlat tomonidan ta'lim tizimi uchun ajratilayotgan mablag'larning 1 %ga ortishi kambag'allikni 0,03 %ga qisqartirish imkonini berganligini ko'rish mumkin. Mamlakatda YaIMning oshishi, savdo-sotiq hamda yalpi kapital qo'yilmalarning ko'payishi, inflyatsiya darajasining pasayishi kabi omillar kambag'allik

darajasi bilan teskari aloqaga ega ekanligini ko'rsatadi.”[12] 2020-yilda jahonda mamlakatlar kesimida ta'lim tizimi uchun sarflangan xarajatlarning YaIMga nisbatan o'rtacha ulushi 4,11 %ni, O'zbekistonda esa 4,9 %ni tashkil etganligini ko'rish mumkin[12].




2-rasm. 2021-2024-yillarda davlat budjetidan oliy ta'limni moliyalashtirish xarajatlari, mlrd.so'm

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish, jamiyatning barcha a'zolariga ta'lim xizmatlarining hamma bosqichlaridan foydalanish imkoniyatini berilishini ta'minlash uchun davlat budjetidan mablag'lar ajratishga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda kelgusi 2023-2025-yillarda ta'lim sohasining joriy va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash xarajatlari uchun davlat budjeti hisobidan jami 140,3 trln. so'm, shundan 2023-yil davomida 43,6 trln. so'm, 2024-yilda 46,7 trln. so'm va 2025-yilda 50 trln. so'm miqdoridagi mablag'lar ko'zda tutilmoqda[7].

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya masalalarida, shu jumladan oliy ta'lim tizimida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu islohotlarning huquqiy asoslari sifatida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekistonda inson resurslari soni vaqt o'tishi bilan o'zgarib bormoqda. Hozirgi kunda ishchi kuchining umumiy soni umumiy mehnatga layoqatli aholisining qariyb 68 %ni tashkil qiladi. Aholining munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasining 2021-2030-yillarda aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko'rsatkich va indikatorlar 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohassidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi (3-rasm).



3 - rasm. 2020-2030-yillarda mehnat resurslari prognozi

Xulosa va takliflar. Inson kapitali o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi, u davlat tomonidan rivojlantirilishi lozim. Xulosa qiladigan bo'lsak inson kapitali darajasini bir nechta usulga asoslanib baholashimiz mumkin, an'anaga ko'ra, iqtisodchilar

buni ko'proq ta'lim olgan odamlarning daromadi bilan hisoblashadi. Tadqiqotlar har bir qo'shimcha ta'lim yili inson daromadini o'rtacha 10 % oshirishini isbotladi. Ta'limga qilingan sarmoyalar ham jamiyatda ijtimoiy tangsizlikni kamaytiradi.

Ta'limga qilingan investitsiya nafaqat mamlakat rivojining maxsus strategiyasi, balki inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbolini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitali shakllanib, takomillashib, moddiy farovonlik va sog'lom turmush tarziga erishadi.

Insonning qadr qimmatini tan olish va ularning rivojlanishiga faol sarmoya kiritish orqali jamiyatlar yanada farovon va adolatli kelajak yaratish mumkin. Shuningdek ularning rivojlanishi uchun nafaqat moliyaviy, balki boshqa turdagi resurslarni ham oqilona va samarali taqsimlash zarur.

Intellektual qobiliyat bu nafaqat birgina insonning balki shu inson istiqomat qiluvchi mamlakatning ham boyligi hisoblanadi. Shunday ekan har bir fuqaroning intellektual qobiliyatini rivojlantirish orqali biz inson kapitalini, ya'ni mamlakali, kreativ kadrlarni tayyorlaymiz.

Xususan, inson kapitaliga qilingan investitsiyalar bilan birga avvalo ularni to'g'ri va aniq yo'naltiruvchi, tartibga soluvchi qonun hujjatlari zarur. Fikrimizcha, ta'lim zamonaviy ta'lim vositalari va usullari yordamida qayta aloqalarini

to'g'ri tashkil qilish orqali bu sohaga kiritilgan sarmoyalar samarasini oshirish mumkin. Albatta innovatsion iqtisodiyot sharoitida ilm-fanga, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalarning yo'naltirilishi mamlakatga uzoq yillar davomida foyda keltiradi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimiga e'tibor kuchaygan, bu yaxshi albatta, ammo shuni ham aytib o'tishimiz kerakki bu og'riqli nuqta – mamlakatimizda hali maktablar yetarli emas. Inson kapitali poydevori oila va maktabdan boshlanadi. Shunday ekan maktablarni, maktabgacha ta'lim muassasalarini yanada ko'paytirishimiz va rivojlantirishimiz kerak.

Albatta, bu xususda yetarlicha normativ-huquqiy hujjatlarga egamiz, lekin bu qonunlar hali hanuzgacha to'g'ri mexanizatsiyalashtirilmagan.

Xususiy va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar faqatgina ta'sisichining investitsiyasi orqali rivojlana olmaydi, shuning uchun, fikrimizcha, davlat ushbu muassasalarga byudjetdan investitsiyalar ajratishi kerak. Zero, inson kapitali davlatning investitsiyasiz rivojlana olmaydi!

Manba va foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023.04.30
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni. O'RQ-637-son. 23.09.2020
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi – "O'zbekiston,-2021.-264b"
4. "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017-yil 2-fevraldagi PF-4947-son
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni PF-60-son
7. "Fuqarolar uchun budjet" tegishli yillardagi nashrlar asosida tuzilgan
8. Schults T. Investment in Human capital//American Economic Review.1961, march.№1
9. Беккер Г. Экономический взгляд на жизнь. Лекция лауреата Нобелевской премии в области экономических наук за 1992 г. / Вестник. С.-Петербургского университета, серия 5, вып. 3, 1993.
10. Беккер Г.С. Теория распределения времени. // Вехи экономической жизни. Рынки факторов производства. Т.3 Под ред. В.М.Гальперина. – СПб.: Экономическая школа, 2000
11. Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – 672 с
12. Ruziboyeva N.X Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning xususiyatlari. Iqtisodiyot va ta'lim 23-27 bet <https://doi.org/10.55439/ECED/vol24iss6/a3>
13. Sherov, A.B. (2021). Oliy ta'lim muassasalarini byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 1121-1133.
14. Qudratovna Z.G. *Theoretical Foundations of Internet Marketing in the Activities of Small Businesses* //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 264-266.
15. Qudratovna Z.G. *Theoretical Foundations of Internet Marketing in the Activities of Small Businesses* //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 264-266.
16. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
17. <http5s://imrs.uz/files/news/ru/964670.pdf>